


## RAQAMLAR


- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiyligi hajmi 21,3 trln. so'm, o'sish sur'ati 100,6 % qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati 100,6 % ni tashkil qildi. Shu jumladan dehqonchilik mahsulotlari 100,3 % ni va chorvachilik mahsulotlari 101,0 % ni tashkil qildi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiyligi hajmi 21306,8 mlrd. so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 100,6 %ni, shu jumladan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda dehqonchilik va chorvachilik va bu sohada xizmat ko'rsatish – 20695,9 mlrd. so'mni (100,4 %), ovchilik – 0,2 mlrd. so'mni (107,2 %), o'rmon xo'jaligi – 577,5 mlrd. so'mni (104,1 %), va baliq xo'jaligi – 33,2 mlrd. so'mni (115,8 %) tashkil qildi

## Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



## **Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (foizda)**




Viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Tayloq tumanining ulushi 11,7 % ni tashkil etdi va tumanlar bo'yicha yetakchilik gilmoqda, Urgut va Pastdarg'om tumanlari mos ravishda 11,2 % va 8,8 % ko'rsatkich bilan keyingi o'rirlarni egalladi. Eng kam ulush Kattaqo'rg'on shahri (0,4 %), Samargand shahri (0,8 %) va Nurobod (2,9 %) tumanida qayd etildi.

### **Qishloq xo'jaligi mahsulotlari**


2019 yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 2018 yilning mos davriga nisbatan 100,6 %ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 100,3 % ni, chorvachilik mahsulotlari 101,0 % ni tashkil qildi.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi (foizda)



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 66,1 % – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 31,7 % – fermer xo'jaliklariga, 2,2 % – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida (foizda)





Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

## Dehqonchilik

2019 yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 11028,5 mlrd. so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 100,3 %ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiylajmiidan dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 53,6 %ni tashkil qildi.




### 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlari

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan					
			fermer xo'jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	tonna	o'sish sur'ati %da	tonna	o'sish sur'ati %da	tonna	o'sish sur'ati %da	tonna	o'sish sur'ati %da
Don ekinlari	597828	102,4	502711	108,4	91256	78,5	3861	105,4
Kartoshka	510494	103,7	74529	103,4	435354	103,7	611	103,9
Sabzavotlar	1150371	100,3	454176	83,9	691071	115,2	5124	100,8
Poliz	78156	103,1	15164	103,3	62842	103,0	150	104,2
Meva va rezavorlar	276153	101,1	123651	106,9	144868	96,4	7634	106,1
Uzum	463081	108,1	260354	103,9	194602	112,0	8125	2,3 м.

**Hosilni yig'ib olish.** 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda 597,8 ming tonna (102,4 %) don ekinlari ishlab chiqarildi, 510,5 ming tonna (103,7 %) kartoshka kavlab olindi, 1150,3 ming tonna (100,3 %) sabzavotlar, 78,2 ming tonna (103,1 %) poliz, 276,1 ming tonna (101,1 %) mevalar va rezavorlar, 463,1 ming tonna (108,1 %) uzum yig'ib olindi.


## Asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi




Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari dehqonchilik mahsulotlarining aksariyat turlarini asosiy ishlab chiqaruvchilari bo'lib qolmoqda. Hisobot davrida kartoshka umumiyligi hajmining 85,3 %, sabzavotlarning 60,1 %, polizning 80,4 %, meva va rezavorlarning 52,4 %, ular tomonidan ishlab chiqarildi. Don ekinlari va uzumning asosiy qismi esa fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarildi, ushbu mahsulotlar hajmining 84,1 % don 56,2 % uzum ekinlari hissasiga to'g'ri keladi.

## 2019 yil yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish


**Don ekinlari (ming t)**




**Kartoshka (ming t)**




**Sabzavotlar (ming t)**




**Poliz (ming t)**



### Mevalar jami (ming t)



### Uzum (ming t)



## Chorvachilik




2019 yilning yanvar-sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 9552,6 mlrd. so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 101,0 %ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiyligi hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 46,4 %ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 217,8 ming tonna go'sht (2018 yilning yanvar-sentabrga nisbatan (4,4 %ga ko'p), 954,0 ming tonna sut (0,3 %ga), 1036,8 mln.dona tuxum (2,5 %ga ko'p) ishlab chiqarildi.

## 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan asosiy turdag'i chorvachilik mahsulotlari

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo'jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	miqdori	o'sish sur'ati %	miqdori	o'sish sur'ati %	miqdori	o'sish sur'ati %	miqdori	o'sish sur'ati %
Go'sht tirk vaznda, ming t	217,8	104,4	35,6	2,5 m.	173,7	93,0	8,5	104,7
Sut, ming t	954,0	100,3	79,3	164,8	873,9	96,9	0,8	105,4
Tuxum, mln. dona.	1036,8	102,5	283,7	177,3	493,7	89,4	259,4	86,5
Jun, ming t	3,3	100,8	0,1	102,9	3,0	100,8	0,1	100,0
Qorako'l, ming dona.	57,0	105,6	2,0	107,9	41,0	100,1	14,0	125,4
Pilla, ming t	2,9	131,3	2,9	131,3	-	-	-	-


### Asosiy turdag'i chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi (foizda)




Chorvachilik mahsulotlarining ishlab chiqarishdagi ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirk vaznda go'shtning umumiy hajmidan 79,7 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sut 91,6 %, tuxum 47,6 %, jun 91,7 %, va qorako'l terining 72,0 % ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

## Hududlar kesimida asosiy turdag'i chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish



**Go'sht (ming t)**




**Sut (ming t)**



**Tuxum (mln. dona)**



**Pilla (tonna)**



## Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2019 yilning 1 oktabr holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1583,5 ming boshga, shu jumladan sigirlar 683,0 ming boshga, qo'y va echkilar 2486,2 ming boshga, parrandalar 12196,1 ming boshga yetdi.


2018 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 1,8 ming boshga (0,1 %ga), shu jumladan sigirlar 0,8 ming boshga (0,1 %ga), parrandalar 212,8 ming boshga (1,8 %ga) qo'y va echkilar esa 1,4 ming boshga (0,1 %ga), ko'paydi.

### **2019 yilning 1 oktabr holatiga xo'jalik toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni**

	<i>Barcha toifadagi xo'jaliklar</i>		<i>shu jumladan:</i>					
			<i>fermer xo'jaliklari</i>		<i>dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari</i>		<i>qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</i>	
	<i>ming. bosh</i>	<i>o'sish sur'ati %</i>	<i>ming. bosh</i>	<i>o'sish sur'ati %</i>	<i>ming. bosh</i>	<i>o'sish sur'ati %</i>	<i>ming. bosh</i>	<i>o'sish sur'ati %</i>
Yirik shoxli								
qoramollar	1583,5	100,1	75,4	100,8	1497,9	100,1	10,2	100,7
<i>shu jumladan sigirlar</i>	683,0	100,1	26,6	100,9	654,2	100,1	2,1	86,0
Qo'y va echkilar	2486,2	100,1	135,8	100,9	2145,5	100,1	204,9	99,1
Otlar	26,0	100,6	2,5	108,4	23,0	100,3	0,5	83,2
Parrandalar	12196,1	101,8	2688,6	107,2	5367,1	100,5	4140,4	100,1

2019 yining 1 oktabr holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 4,8 % fermer xo'jaliklari hissasiga, 94,6 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,6 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim. Shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 5,5 % fermer xo'jaliklariga, 86,3 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 8,2 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 22,0 % fermer xo'jaliklariga, 44,0 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 34,0 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi

## Chorva mollari va parrandalar bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha ulushi (foizda)



### 2019 yilning 1 oktabr holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parandalar bosh soni

Yirik shoxli qoramollar (ming bosh)	
Pastdarg'om	183,5
Urgut	181,3
Kattaqo'rg'on	139,1
Ishtixon	128,4
Jomboy	109,3
Payariq	108,7
Qo'shrabot	102,4
Bulung'ur	102,1
Paxtachi	100,1
Tayloq	99,6
Naripay	97,8
Oqdaryo	75,5
Nurobod	73,8
Samarqand	50,5
Kattaqo'rg'on sh.	25,4
Samarqand sh.	5,9




### shundan, sigirlar (ming bosh)


Urgut	80,9
Pastdarg'om	77,5
Kattaqo'rg'on	59,5
Payariq	56,3
Ishtixon	55,9
Bulung'ur	52,9
Tayloq	48,1
Jomboy	45,9
Naripay	42,5
Paxtachi	36,8
Qo'shrabot	36,3
Nurobod	31,2
Oqdaryo	29,9
Samarqand	18,5
Kattaqo'rg'on sh.	7,0
Samarqand sh.	3,5



### Qo'y va echkilar (ming bosh)



### Parrandalar (ming bosh)



Qishloq xo'jaligi va ekologiya  
statistikasi bo'limi

- 71-230-85-30
- 71-230-85-31